Biroq tadqiqot natijalari innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishda qator muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, aksariyat o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha yetarlicha malakaga ega emasligi va texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani asosiy muammolardan biri sifatida belgilandi. Ta'lim muassasalarining barchasi ham zamonaviy raqamli ta'lim vositalari bilan to'liq ta'minlanmagani sababli innovatsion texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish jarayoni sekin kechmoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim vositalarining ahamiyati katta. Interfaol platformalar, AR/VR texnologiyalar, robototexnika va sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim platformalarining joriy etilishi ta'lim jarayonining moslashuvchanligini ta'minlab, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

Tadqiqotda innovatsion texnologiyalarning samaradorligi tasdiqlangan bo'lsa-da, ularni keng qo'llash uchun o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va texnik infratuzilmani rivojlantirish zarurati aniqlandi. Shu sababli o'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etish, maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, dasturlash va robototexnika fanlarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, raqamli ta'limga oid davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash va ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni izchil integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, innovatsion ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi nafaqat raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, balki umumiy ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois raqamli texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish va uni uzluksiz rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

(2). Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston", 2016.

(3). Learn to Program with Scratch: A Visual Introduction to Programming with Games, Art, Science, and Math, Majed Marji, 2014.

(4). Texnologiya [matn]. 7-sinf uchun darslik, Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2023, 240-bet.

(5). Eshaliyev O'.S., Nurmamatov Z.Sh., Xayitov J.X. Informatika va raqamli texnologiyalar. O'quv qo'llanma, Termiz, 2024, 202-bet.

(6). Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi. Maqola. Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovn.a Nizomiy nomidagi TDPU "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.

(7). Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi. "Ilm sarchashmalari", Urganch, 3/202, 78–81-betlar.

(8). Xayitov J.X. "Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi. Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman, Termiz, 2022, 389–392-betlar.

(9). Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro'li va ahamiyati ta'limda. "Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi", Namangan. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427. 1/2023, 645–650-betlar (13.00.00:№30).

(10). Nurmamatov Z.Sh. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. Andijon, 2022, 31–34-betlar.

(11). Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. International Conference of Scientific and Management Current Affairs. Angliya, 2022, p. 1–4.

Valixanova Nigora Abdukaxxorovna ("University of economics and pedagogy" NOTM professori v.b., p.f.f.d. (PhD); nigora.valixanova@mail.ru)

NIZOLARNING IJOBIY VA SALBIY FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Nizolar jamoada tarang munosabatlarni yuzaga keltiradi, xodimlar e'tiborini asosiy ishdan chalg'itadi, odamlar e'tibori ko'proq munosabatlarni oydinlashtirishga qaratiladi, natijada odamlar asabiy holatda bo'ladilar. Shuningdek, nizolar nafaqat buzuvchi kuchga ega bo'ladilar, balki bunyod qiluvchi ham bo'lishlari mumkin. Maqolada nizo turlari hamda nizolarning ijobiy va salbiy funksiyalari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *nizo, nizo turlari, nizoning ijobiy va salbiy funksiyalari, "hujumkor", "suhbatdosh", "fikrlovchi".*

Валиханова Нигора Абдукаххоровна (и.о.профессор НВУЗ
"University of Economics and pedagogy", PhD)

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ КОНФЛИКТОВ

Аннотация. *Конфликты порождают напряженные отношения в коллективе, отвлекают внимание сотрудников от основной работы, внимание людей больше направлено на выяснение отношений, в результате чего люди находятся в нервном состоянии. Также конфликты приобретают не только разрушительную силу, но и могут быть созидательными. В статье описаны типы конфликтов, а также их положительные и отрицательные функции.*

Ключевые слова: *конфликт, виды конфликта, положительные и отрицательные функции конфликта, "атакующий", "собеседник", "мыслитель".*

Valikhanova Nigora Abdukakhorovna (professor of "University of economics and pedagogy", PhD)

POSITIVE AND NEGATIVE FUNCTIONS OF CONFLICT

Annotation. *Conflicts create tense relationships in the team, the attention of employees is distracted from the main work, the attention of people is more focused on clarifying relationships, as a result of which people are in a nervous state. Also, conflicts will not only have destructive power, but can also be building. The article describes the types of conflict and the positive and negative functions of conflict.*

Keywords: *conflict, types of conflict, positive and negative functions of conflict, "offensive", "interlocutor", "thinker".*

Kirish. "Nizo" tushunchasi "moslik" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Muvofiqlik ikki qutbli hodisadir: uning darajasi guruh a'zolarining to'liq mos kelishidan to ularning to'liq mos kelmasligigacha o'zgaradi. Ijobiy qutb kelishuvda, o'zaro qoniqishda, salbiy qutb ko'proq nizo sifatida namoyon bo'ladi.

Nizo, birinchi navbatda, subyektlardan biri tomonidan boshqa shaxs uchun nomaqbul, norozilikni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar sodir etishi natijasida shaxslararo to'qnashuv xarakterida bo'lgan vaziyatga nomuvofiqlikni ifodalashning shaklidir (dushmanlik, norozilik va bu mavzu bilan muloqot qilishni istamaslik). Shaxslararo konflikt oddiy muloqotning buzilishi yoki uning to'liq to'xtatilishida eng aniq namoyon bo'ladi. Agar bir vaqtning o'zida aloqa sodir bo'lsa, u, ko'pincha, buzg'unchi xususiyatga ega bo'lib, odamlarni yanada ajratishga yordam beradi, ularning nomuvofiqligini kuchaytiradi. Ammo yagona, takrorlanmaydigan ziddiyat faqat shaxslarning vaziyatga mos kelmasligidan dalolat beradi. Bunday ijobiy hal qilingan nizolar guruh ichida ko'proq moslashishga olib kelishi mumkin.

Nizo bu odamlarni shaxsiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan qarama-qarshilikdir. Nizoda tomonlarning biri tomonidan ikkinchi tomondagi odamni hulqini, fikrini, hislarini o'zgartirishini talab qiladi. Masalan, odamlar har xil dunyoqarashga, ma'lum masalalar bo'yicha turlicha fikrga ega bo'lishlari, lekin bu ularni osoyishta ishlashlariga xalal bermasligi mumkin. Lekin shaxsni yoki guruhni manfaatlariga, qiziqishlariga, mavqelariga, shaxsiy g'ururlariga tegishli qarama-qarshiliklar nizolarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. Professor C.Bouldingning fikriga ko'ra, nizo – bu raqobat holati bo'lib, unda tomonlar mumkin bo'lgan pozitsiyalarning nomuvofiqligini tan oladilar va har bir tomon boshqa tomon egallamoqchi bo'lgan pozitsiyaga mos kelmaydigan pozitsiyani egallashga intiladi [1].

Professor L.Krisbergning so'zlariga ko'ra, nizo – bu bir-biriga mos kelmaydigan maqsadlarga ega ekanligiga amin bo'lgan ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi munosabat [2].

Taniqli polshalik sotsiolog Y.Shepanskiy shunday deb yozadi: "Konflikt – muayyan predmet yoki vaziyatga nisbatan munosabat, maqsad va harakat usullarining qarama-qarshiligidan kelib chiqadigan to'qnashuvdir" [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Nizolar quyidagi turlarga bo'linadi: shaxsni ichidagi, shaxslararo, shaxs va guruh o'rtasidagi, guruhlararo.

Shaxsni ichidagi nizolar xodimlarni shaxsiy ehtiyojlari va qadriyatlari bilan ishlab chiqarish talablari o'rtasidagi nomutanosiblik, xodimni ish bilan me'yordan kam yoki ko'p yuklanishi, qarama-qarshi talablarni qo'yilishi oqibatida kelib chiqadi.

Shaxslararo nizolar xarakterni to'g'ri kelmasligi, kapitalni, resurslarni, ishchi kuchini cheklaganligi, jihozlarning yetishmasligi, vakant lavozimlarning mavjudligi natijasida kelib chiqadi.

Guruh va shaxs o'rtasidagi nizolar guruhda shakllangan ahloq va mehnat me'yorlariga alohida shaxs tomonidan qarshilik ko'rsatilishi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday nizo rahbarni rahbarlik qilish uslubini jamoa a'zolarining yetuklik darajasiga mos emasligi, rahbar va xodimlarni soha bo'yicha mutaxassislik darajasini nomutanosibligi, rahbarni xarakterini, axloqiy qiyofasini guruh tomonidan qabul qilinmasligi natijasida kelib chiqadi.

Guruhlararo nizolar jamoaning rasmiy guruhlari o‘rtasida (masalan, jamoa bilan kasaba uyushmasi); norasmiy guruhlar o‘rtasida, rasmiy va norasmiy guruhlar o‘rtasidagi nizolardir.

Natija. Nizoli vaziyatlarda odamlar o‘zlarini turlicha tutadilar: kimdir, ko‘pincha, yon beradi, kimdir o‘zini nuqtayi nazarida qattiq turib oladi. Psixologiya fanlari doktori N.Obozov nizoli vaziyatda 3 xil tipdagi odamlar bo‘lishini ko‘rsatadi: “hujumkor”, “suhbatdosh”, “fikrlovchi” [3].

“Hujumkor”. “Eng yaxshi himoya – hujum” degan shior ostida ish tutadi. Uning uchun, eng muhimi, muhitni o‘zgartirish va har qanday ishni oxiriga yetkazish. “Hujumkor”ning harakatlari nizoli vaziyatlarni uzoq davom etishiga olib keladi. “Hujumkor” atrofidagi muhitni boshqa odamlarni pozitsiyasini o‘zgartirishni xohlaydi. Natijada turli to‘qnashuvlar yuzaga keladi, nizoli vaziyatlar keskinlashadi.

“Suhbatdosh” uchun “Yomon tinchlik yaxshi, yaxshi jangga nisbatan” shiori xarakterli. Uning uchun, eng muhimi, odamlar bilan bo‘ladigan muloqot. Bu “suhbatdosh”larni do‘stlari, tanish-bilishlari ko‘p bo‘ladi va yaqin munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojni ish bilan qoplashga harakat qiladi, odamlar bilan yuzaki munosabatlarda bo‘ladi.

Nizoli vaziyatlarda ular uzoq vaqt qarshilik ko‘rsatishga qodir emaslar. Ular chuqur his-tuyg‘ularga teginmagan holda nizolarni bartaraf qilishni uddalaydilar. Bu tipdagi odamlar o‘zining sherigini kayfiyatdagi o‘zgarishlarni tez sezadilar va qarama-qarshiliklar vujudga kela boshlagandayoq, uni tinchitishga intiladilar. “Suhbatdoshlar” o‘zgalar fikrini qabul qilishga, ko‘pincha, tayyorlar, ularni fikrlarini o‘zgartirishga intilavermaydilar, boshidanoq hamkorlik qilishni ma’qul ko‘radilar. Shuning uchun ular, ko‘pincha, jamoaning hissiy rahbar shaxslari bo‘lib qoladilar.

“Fikrlovchi”ga “Mayli, men g‘alaba qildim, deb o‘ylay qolsin” degan pozitsiya xos. “Fikrlovchi” o‘zini va atrofidagi olamni o‘rganishga yo‘nalgan bo‘ladi, u nizoli vaziyatda o‘zining xaqligini va sherigining nohaqligini isbotlovchi murakkab tizimni tuzadi. Nizoli vaziyatda bu odamlarni boshi berk ko‘chadan uchinchi odamgina olib chiqishi mumkin yoki hayotiy shart-sharoitlarni o‘zgartirishigina, ularga yordam berishi mumkin.

“Fikrlovchi” o‘zini xatti-harakatlarining mantig‘ini yaxshilab o‘ylab ko‘radi, “Suhbatdosh”ga nisbatan kamroq sezgir bo‘lsa ham, harakatlari mobaynida masofa saqlaganlari uchun nizoli vaziyatga kam tushadilar. “Fikrlovchi”lar ma’naviy qonuniyatlar va g‘oyalar sohasidagi nizolar va qarama-qarshiliklardan tez ta’sirlanadilar, “Hujumkor”lar faoliyatiga maqsadlar birligini, birgalikdagi faoliyatini ko‘proq qadrlaydilar, “Suhbatdosh”lar ularni hissiy-kommunikativ qobiliyatlariga beriladigan baholarga o‘tkir reaksiya qiladilar, lekin intellektual sifatlariga berilgan baholarga unchalik e’tiborsiz bo‘ladilar.

Muhokama. Ba’zi mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, har qanday katta jamoalarni o‘zini “janjalkashlari” va “tinchliksevarlari” bo‘ladi. “Janjalkashlari” uchun nizoli vaziyatlar oddiy, tabiiy hol bo‘lib hisoblanadi, “tinchliksevarlar” uchun esa hamkorlik oddiy, tabiiy hol hisoblanadi. Agar “janjalkash” doim janjal chiqarsa, “tinchliksevar” esa qaysi yo‘l bilan bo‘lmasin, janjalni o‘chirib turadi. Nizolar ijobiy va salbiy funksiyalarni bajarishi mumkin.

Nizolarning ijobiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

▪qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi ziddiyatni yumshatish (mojaro odamlar o‘rtasida yaxshiroq tushunishni o‘rnatishga yordam beradi, ammo bu faqat nizoning borishini ijtimoiy nazorat qilish bilan mumkin);

▪axborot va bog‘lovchi funksiyalar (odamlar bir-birlarini tekshirishlari va yaxshiroq bilishlari mumkin);

▪tashkilotlarni birlashtirish va tuzish (tashqi dushman bilan qarama-qarshilik, umumiy qiyinchiliklarni yengish guruhdagi odamlarning birgalikdagi harakatlarini tashkil qilishni qo‘llab-quvvatlaydi);

▪o‘zgarish va rivojlanishni rag‘batlantirish (mojarolar odamlarni o‘z pozitsiyalarini himoya qilishda yangi yo‘llar va dalillarni izlashga, o‘zaro munosabatlarda yaxshi natijalarga erishishga majbur qilishi mumkin);

▪itoatkorlik sindromini olib tashlash (mojaroning rivojlanishi bilan odamlar ilgari yashirgan g‘oyalarni ifoda eta boshlaydilar, bu esa vaziyatni chuqurroq tushunishga, muammolarni hal qilish variantlarini ishlab chiqishga imkon beradi);

▪diagnostika funksiyasi (harakatlar faollashganda, har bir tomon umumiy manfaatlar atrofida birlashadi, raqiblar aniqlanadi va nizolarni tezroq hal qilish mumkin).

Nizoning salbiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

▪mojaroni hal qilish uchun katta hissiy va moddiy xarajatlar;

▪jamoadan, guruhdan chiqarib yuborish, xodimlarni ishdan bo‘shatish, mehnat unumdorligi yoki o‘qitishning pasayishi, jamoada, guruhda ijtimoiy-psixologik iqlimning yomonlashishi;

▪kelajakda tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik darajasini pasaytirish yoki uni to‘liq tugatish;

▪o‘z guruhini, jamoasini boshqa guruhlarga nisbatan noto‘g‘ri (haddan tashqari) idrok etish, boshqa guruhlarni dushman sifatida tasavvur qilish;

▪tashkilotda, guruhda yoki, umuman, jamiyatda qarama-qarshilik ruhini tasdiqlash, haqiqiy muammolarni hal qilishdan ko‘ra mojaroda kurash va g‘alabaga ko‘proq ahamiyat berish.

Xulosa va takliflar. “Nizo” tushunchasi deyarli barcha ijtimoiy fanlarda qo‘llaniladi va ularning har birida asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, qarama-qarshiliklar birligi va kurashining umumbashariy qonuni tasvirlangan asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, u alohida ilmiy emas, balki falsafiydir, shuning uchun bilimning turli sohalarida unga kiritilgan o‘ziga xos mazmun juda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Dialektik materializmning umumiy metodologik nuqtayi nazaridan qarama-qarshilik qarama-qarshiliklar rivojlanishining eng yuqori bosqichini, ularni hal qilishdan oldingi bosqichni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boulding K. Conflict and Defence. N.Y, 1988, XIV, p. 133.

(2). Krisberg L. Sociology of Social Conflict. Hew Jersey, Prentice-Holl, 1973, XIV.

(3). Obozov N.N. Interpersonal Relations. LGU, L. Press, 1979.

(4). Szczepanski J. Die Intelligenz in der gegenwrtigen? Gesellschaft. Frankfurt. M., 1966, s. 236.

(5). Valixanova N.A. Qadriyatlarning o‘qituvchi faoliyatidagi uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi roli va o‘rni. “Qo‘qon universiteti xabarnomasi”, 2023. https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.817

Matnazarov Asadbek G‘ayratjon o‘g‘li (Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU Magistratura bo‘limi Sport faoliyati futbol yo‘nalishi 241-guruh talabasi)

YOSH FUTBOLCHILARDA KOORDINATSIYA QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA UNING O‘YIN JARAYONIDA MUVAFFAQIYATGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Eng murakkab sport intizomi dunyosida futbol o‘zining sportchilarning tayyorgarlik darajasiga juda yuqori talablari bilan ajralib turadi. Jismoniy tayyorgarlik bu o‘yin boshida muvaffaqiyatni belgilovchi omil sifatida chaqqonlik alohida ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar majmuasidir. Ustuvor vazifa aynan shu sifatni rivojlantirish bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun o‘yin o‘rgatish usullaridan maqsadli foydalanishni nazarda tutadi.*

Kalit so‘zlar: *futbol, chaqqonlik, jismoniy sifat, tezlik, harakat, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, mashq, metodika, o‘yin.*

РАЗВИТИЕ КООРДИНАЦИОННЫХ НАВЫКОВ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УСПЕШНОСТЬ В ИГРОВОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В мире самых сложных спортивных дисциплин футбол выделяется чрезвычайно высокими требованиями к уровню подготовки спортсменов. Физическая подготовка – это набор качеств, среди которых особое значение имеет ловкость, как определяющий фактор успеха в начале игры. Развитие этого качества является приоритетной задачей, и для достижения этой цели предполагается целенаправленное использование игровых методов обучения.*

Ключевые слова: *футбол, ловкость, физические качества, скорость, движение, физическая подготовка, физическое развитие, упражнение, методика, игра.*

DEVELOPMENT OF COORDINATION SKILLS IN YOUNG FOOTBALL PLAYERS AND ITS IMPACT ON SUCCESS IN THE GAME PROCESS

Annotation. *In the world of the most complex sports disciplines, football is distinguished by its very high requirements for the level of preparation of athletes. Physical preparation is a complex of qualities, in which agility is of particular importance as a determining factor for success at the beginning of the game. The priority task is to develop this quality, which involves the targeted use of game training methods to achieve this goal.*

Key words: *football, agility, physical quality, speed, movement, physical preparation, physical development, exercise, methodology, game.*

Kirish. Bizning davlatimizda bugungi kunda juda ham ko‘plab harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu harakatlarning barchasi kelajak avlod uchun, shuningdek, ularning sog‘lig‘ini mustahkamlash bilan birga, kelgusi hayotga tayyorlashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu muammo yuzasidan Usmonxo‘jayev T. (1990), Xo‘jayev F., K.Rahimqulov, B.Nigmanov (1996), Shiyan B.M. (1989), Ashmarin B.A. (1990), Mahkamjonov K.M. (2008), Akramov R.A. (1989), Qo‘shbaxtiyev I.A. (2001), Iseev Sh.T. (2003) va Nurimov R.I. (2005),